AZIZ HAVORIY PAVLUSNING

KORINFLIKLARGA

IKKINCHI MAKTUBI

1-БОБ

Duoyi salom

[1] Xudoning irodasi bilan Iso Masihning havoriysi bo‘lgan men, Pavlus ila birodarimiz Timo‘tiy, Korinf
shahridagi Xudoning jamoatiga, shuningdek, Axaya o‘lkasi bo‘ylab yashovchi barcha Xudoning azizlariga
salom yo‘llaymiz. [2] Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masihdan sizlarga inoyat va tinchlik bo‘lsin!

Tasalli manbayi – Xudo

[3] Har turli tasallining manbayi bo‘lgan Xudo, marhamatli Ota, Rabbimiz Iso Masihning Otasi Xudoga
hamdu sanolar bo‘lsin! [4] U butun g‘am-qayg‘ularimiz uchun bizga tasalli beradi. Shu tariqa o‘zimizdek har
turli qayg‘ularga yo‘liqqan boshqa odamlarni biz Xudodan olgan tasalli bilan ovuntira olamiz. [5] Masihning
azoblari bizda qancha ko‘payayotgan bo‘lsa, Masihning tasallisi ham bizda shuncha ko‘paymoqda. [6] Agar biz
g‘am-qayg‘u chekayotgan bo‘lsak, bu sizlar tasalli va najot topishingiz uchundir. Va agar biz tasalli
topayotgan bo‘lsak, bu ham sizlarning tasalli topishingiz uchundir. Biz chekayotgan qayg‘ularga o‘zingiz ham
yo‘liqqaningizda, shu bilan tasalli topib, sabr-toqat qilasizlar. [7] Sizlarga ishonchimiz komil, chunki sizlar
alamlarimizgagina emas, tasallimizga ham sherik ekaningizni bilamiz.
[8] Ey birodarlar, Asiya viloyatida boshimizga kelgan kulfatlardan xabarsiz qolishingizni istamaymiz. Biz
haddan tashqari, chidab bo‘lmaydigan darajada ezildik, hatto sog‘ qolishga umidimizni yo‘qotgan edik. [9] Ha,
o‘limga mahkum bo‘lganimizni o‘z vujudimizda sezardik. Bu shuning uchun bo‘ldiki, biz o‘zimizga emas,
balki faqat o‘liklarni tiriltiruvchi Xudoga umid bog‘laylik. [10] Haqiqatan ham Xudo bizni shunday katta o‘lim
tahlikasidan qutqardi va yana qutqaradi. Ha, U bizni yana qutqaradi, deb Undan qattiq umid qilamiz.
[11] Chunki sizlar ham biz uchun ibodat qilishda ishtirok etib kelyapsizlar. Shunday ko‘p kishilarning iltijosi
tufayli Xudo bizga inoyat ko‘rsatdi, toki buni yana ko‘plar bilib, biz tufayli Xudoga shukr qilsinlar.
[12] Bizning iftixor qilishimizning sababi bor, vijdonimiz ham shundan dalolat beradiki, biz bu dunyoda,
xususan sizlar bilan bo‘lgan munosabatimizda insoniy hikmat bilan emas, balki Xudoning inoyati bilan,
muqaddaslik bilan, Xudoga maqbul bo‘lgan samimiylik bilan harakat qildik. [13] Biz sizlarga nima yozsak, o‘qib,
anglab yetinglar, deb yozamiz. Umid qilamanki, sizlar bularni oxirigacha anglab yetasizlar. [14] Sizlar, qisman
bo‘lsa ham, bizni anglagansizlar va bilasizlarki, Rabbimiz Iso Masihning *olamga qaytadigan* kunida biz sizning
faxringiz, siz esa bizning faxrimiz bo‘lasizlar.

Pavlusning kechikkan ziyorati

[15] Shu ishonch bilan, sizlar ikkinchi daf’a farah topinglar deb, oldinroq sizlarning yoningizga kelish
niyatida edim. [16] Sizlarning oldingizdan Makedoniyaga o‘tish va Makedoniyadan yana sizlarning oldingizga
qaytish niyatida edim, oxiri sizlar meni Yahudiyaga kuzatib qo‘yar edingizlar. [17] Shunday niyatim bo‘la turib,
beqarorlik bilan harakat qildimmikan? Yoki men goh ha-ha, goh yo‘q-yo‘q deganday, o‘zboshimchalik bilan
tashabbus ko‘rsatdimmikan?
[18] Xudo O‘z so‘zida turadi, shuning uchun bizning sizga so‘zimiz ham goh “ha”, goh “yo‘q” emas. [19] Biz,
ya’ni men, Silvan va Timo‘tiy sizning orangizda Xudoning O‘g‘li – Iso Masihni targ‘ib qilganimizda, buni goh
“ha”, goh “yo‘q” deb qilmadik. Masih degani – “ha” degani. [20] Chunonchi Xudo qancha va’dalarni bergan
bo‘lsa, ular Masih sharofati bilan “ha” deganday, “omin” deganday ro‘yobga chiqadi, toki biz Masih orqali
Xudoni ulug‘laylik. [21] Xudoning O‘zi bizni sizlar bilan birga Masih ummati qilib, mustahkam poydevorli qildi,
O‘ziga ajratib oldi, [22] ustimizga O‘zining muhrini bosdi, bularning garovi qilib Muqaddas Ruhni
yuraklarimizga joylashtirdi.
[23] O‘z jonim haqi Xudoni shohidim bilaman: sizlarni ayaganim uchun hanuz Korinfga bora olmadim. [24] Biz
go‘yo sizlarning imoningiz ustidan hukmronlik o‘rnatayotganday bo‘lyapmiz. Aslida biz quvonishingiz uchun
sizlarga ko‘maklashmoqdamiz. Chunki sizlar imonda mahkam turibsizlar.

2-БОБ

Xafagarchilik va kechirim haqida

[1] Shunday qilib, men ko‘nglimda yoningizga yana xafagarchilik bilan kelmaslikka qaror qildim. [2] Agar men
sizlarni xafa qiladigan bo‘lsam, xafa qilganlarimdan boshqa kimlar ham meni ovuntira olardi? [3] Men ham
oldindan shuning uchun sizlarga yozdimki, yoningizga kelganimda meni xursand qiladigan odamlardan
xafagarchilik ko‘rmayin. Chunki ishonchim komilki, mening sevinchim hammangizning sevinchingizdir.
[4] Men sizlarni xafa qilish uchun emas, balki sizlarga bo‘lgan cheksiz muhabbatimni sezishingiz uchun chuqur
qayg‘u va yurak iztirobi ichida hamda to‘xtovsiz ko‘z yoshlari bilan yozdim.
[5] Agar kim xafa qilgan bo‘lsa ham, meni emas, mubolag‘a qilmasdan aytyapmanki, deyarli hammangizni
xafa qilgan bo‘ladi. [6] Xafa qilgan odamga ko‘pchilik tomonidan berilgan bunday jazo yetar. [7] Shuning uchun
endi bu odam haddan ortiq xafa bo‘lmasligi uchun, uni kechirib tasalli berishingiz ma’quldir. [8] Ha, unga
boshqatdan muhabbat qo‘yishingizni iltimos qilaman. [9] Sizlar har ishda itoatli bo‘lganingizni amalda bilish
uchun sizlarga yozdim. [10] Biror kishini biror narsa xususida kechirsangizlar, men ham kechiraman. Men kimni
kechirgan bo‘lsam (agar kechiradigan biror narsa bo‘lsa), uni sizlar uchun, Masihning huzurida turib
kechirdim. [11] Zinhor shaytonning pand berishiga yo‘l qo‘ymaylik, uning fitnalaridan xabarsiz emasmiz-ku.

Injilning xush hidi taralmoqda

[12] Masihning Xushxabarini yetkazish uchun Troas shahriga kelganimda, Rabbim menga bir eshik ochib
bergan edi. [13] Shunga qaramay, ruhim tinch emas edi, chunki birodarim Titusni u yerda topmagan edim.
Nihoyat, u yoqdagilar bilan xayrlashib, Makedoniyaga jo‘nadim.
[14] Xudoga shukr! U bizni doimo Masihning tantanali yurishida olib borayotir va biz orqali har yerda O‘z
haqidagi bilimning xush bo‘ylarini tarqatayotir. [15] Biz xalos bo‘ladiganlarning ham, halok bo‘ladiganlarning
ham orasida Xudo sha’niga taralayotgan Masihning xush hidimiz. [16] Bu – halok bo‘ladiganlar uchun halokatli
o‘lim hididir, xalos bo‘ladiganlar uchun esa yashatuvchi hayot hididir.
Bunday mas’uliyatga kim loyiq? [17] Mana biz ko‘pchilik qilayotganday, Xudoning kalomini bozorga
solmaymiz. Aksincha, Xudo tomonidan yuborilgan va Masih xizmatida bo‘lgan kishilardek, Xudoning ko‘zi
oldida sof ko‘ngildan voizlik qilmoqdamiz.

3-БОБ

Yangi Ahdning ulug‘ligi

[1] O‘zimizni yana tavsiya etishni boshlaymizmi? Nahotki ba’zilarga kerak bo‘lganday, sizlar uchun yoki
sizlardan tavsiyanomalar kerak bo‘ldi? [2] Butun insonlar tomonidan tan olingan va o‘qilayotgan, bizning
qalbimizga yozilgan tavsiyanomamiz – mana sizlarsiz. [3] Ochiq ko‘rinib turibdiki, bizning xizmatimiz orqali
yozilgan Masihning maktubi sizlarsiz. Bu siyoh bilan emas, balki barhayot Xudoning Ruhi bilan yozilgan
hamda tosh lavhalarga[a] emas, balki inson qalblari bo‘lgan et lavhalarga yozilgan maktubdir. [4] Biz Masih
tufayli Xudo huzurida shunday ishonchga sazovormiz. [5] Lekin bunga go‘yo o‘z-o‘zimizdan, o‘z qobiliyatimiz
bilan muvaffaq bo‘lmaganmiz. Bizning qobiliyatimiz faqat Xudodandir. [6] U bizga Yangi Ahdning[b]
xizmatkorlari bo‘lishday qobiliyatni berdi. Bu xizmat esa Qonun harfi[c] asosida emas, Ilohiy Ruh asosida sodir
bo‘lmoqda. Harf o‘ldiradi, Ruh esa hayot bag‘ishlaydi.
[7] Tavrot davrida Xudoga xizmat qiluvchilar toshga harfma-harf chizilgan va gunohkorga mutlaqo o‘lim
keltiradigan Qonun bo‘yicha xizmat qilishlari kerak edi. Bu xizmatning ko‘rsatmasi shunday ulug‘vorlik bilan
keldiki, hatto Musoning nur yog‘ilib turgan yuziga Isroil o‘g‘illari qaray olmas edilar (vaholanki, Muso
yuzining ulug‘vorligi o‘tkinchi edi). [8] Shunday ekan, Ilohiy Ruh bo‘yicha Xudoga xizmat qilish yo‘li yanada
ulug‘vorroq bo‘lmaydimi? [9] Ilgari gunohkorni mahkum qilgan xizmatning ulug‘vorligi bor edi. Endi esa
gunohkorning oqlanishiga sabab bo‘ladigan xizmat bundan chandon ulug‘ emasmi? [10] Hammadan ulug‘
bo‘lgan narsa o‘rtaga chiqqandan so‘ng, ilgari ulug‘ deb bilingan narsaning ulug‘ligi endi hechga chiqadi.
[11] Agar vaqtincha joriy bo‘ladigan tuzum ulug‘vorlik bilan kelgan bo‘lsa, unda boqiy qoluvchi tuzum naqadar
ulug‘vorroqdir.
[12] Biz bunday umidga molik bo‘lib, katta jasorat bilan harakat qilyapmiz. [13] Muso payg‘ambar yuzimning
o‘tkinchi porloqligi tugaganini Isroil o‘g‘illari ko‘rmasin deb, yuziga parda yopgan edi. Biz unga

---

[a] **3:3** TOSH LAVHALAR: Tavrotning asosini tashkil etgan O‘n Amrni Xudo tosh lavhalarga chizib, Muso payg‘ambarga topshirgan edi; yana qarang: Ibroniylar 10:16.
[b] **3:6** YANGI AHD: lug‘atga qarang.
[c] **3:6** QONUN HARFI: aslida “harf”, ya’ni Tavrotning amr-farmonlari; yana qarang: Rimliklar 7:6, Yuhanno 6:63.

o‘xshamaymiz. [14] Ularning zehnlari o‘tmaslashib ketdi. Chunki bugunga qadar Qadimgi Ahdni[a] o‘qish vaqtida,
o‘sha parda turibdi. Parda ko‘tarilmagan, u yolg‘iz Masih orqali bartaraf bo‘ladi. [15] To bugunga qadar
Musoning kitobini o‘qish vaqtida ularning yuraklarini parda yopib turibdi. [16] Faqat Rabbimiz Isoga iltijo
qilganda bu parda olib tashlanadi.
[17] Rabbimiz – Ruhdir. Rabbimizning Ruhi qayerda bo‘lsa, o‘sha yerda erkinlik bor. [18] Biz hammamiz ochiq
yuzimiz bilan, ko‘zguga qaraganday, Rabbimizning ulug‘vorligiga qarab turibmiz. Ulug‘vorlikdan
ulug‘vorlikka o‘tganimiz sari, Rabbimizning suratiga tomon o‘zgarmoqdamiz; bu esa Rabbimizning Ruhi
orqali sodir bo‘lmoqda.

4-БОБ

Sopol idishlardagi ulug‘ xazinamiz

[1] Biz Xudoning marhamati bilan bunday xizmatga musharraf bo‘lib, umidsizlanmaymiz. [2] Lekin sirli va
uyat ishlarni rad etib, hiyla bilan harakat qilmaymiz, Xudoning kalomini buzmaymiz. Haqiqatni ochiq-oydin
qilib, Xudo huzurida o‘zimizni har bir insonning vijdoniga taqdim etamiz. [3] Bordiyu Xushxabarimiz yopiq
bo‘lsa, u halok bo‘ladiganlar uchun yopiqdir. [4] Xudoning tasviri bo‘lgan Masihning ulug‘vor Xushxabarining
nurini odamlar ko‘rmasin deb, bu dunyoning tangrisi[b] imonsizlarning zehnlarini ko‘r qilgan. [5] Biz esa
o‘zimizni emas, balki Rabbimiz Iso Masihni targ‘ib qilmoqdamiz; biz – Iso yo‘lida sizlarning qullaringizmiz,
xolos. [6] Xudo ibtidoda: “Qorong‘ulikdan nur porlasin”, – deb qanday buyurgan bo‘lsa[c], endi O‘zining nuri
bilan bizning yuraklarimizni ham shunday yoritdi, Iso Masih siymosida porlab turgan O‘zining ulug‘vorligini
bizga ko‘rsatdi.
[7] Bu ulug‘vor xazinani esa biz sopol idishlarda[d] olib yuribmiz, toki bu oliy qudrat bizga emas, Xudoga
mansub ekanligi ko‘rinib tursin. [8] Biz har tomonlama jabrlanamiz, lekin ezilmaymiz. Mushkul ahvolda qoldik,
ammo umidimizni yo‘qotmaymiz. [9] Quvg‘inga uchraymiz, lekin ilojsiz emasmiz. Yerga qulaymiz, ammo
yakson bo‘lmaymiz. [10] Isoning hayoti badanimizda namoyon bo‘lib tursin deb, Uning o‘limini doim
badanimizda olib yuribmiz. [11] Bizning foniy badanimizda Isoning hayoti namoyon bo‘lsin deb, biz, tiriklar Iso
uchun hamisha o‘limga topshirilmoqdamiz. [12] Shunday qilib, o‘lim bizda, hayot esa sizda amal qilmoqda.
[13] Zaburda: “Ishonganim uchun gapirdim”, – deb yozilgan[e]. Biz xuddi shu imonning ruhiga egamiz va
ishonganimiz uchun gapiramiz. [14] Bilamizki, Rabbimiz Isoni tiriltirgan Xudo bizni ham Iso bilan birga
tiriltiradi va sizlar bilan birga O‘z huzurida turg‘izib qo‘yadi. [15] Bularning hammasi sizlar uchun sodir
bo‘lmoqda, toki Xudoning inoyati yana ko‘pdan-ko‘p odamlarga o‘tsin, shu tariqa Xudoning hamdu sanosi
yanada oshib, tillardan tushmaydigan bo‘lsin.
[16] Shuning uchun ham umidsizlanmaymiz. Garchi zohiriy vujudimiz har qancha xazon bo‘layotgan bo‘lsa-
da, botiniy vujudimiz kundan-kunga yangilanyapti. [17] Bu o‘tkinchi va arzimas qayg‘ularimiz biz uchun
haddan tashqari ajib, katta va abadiy ulug‘vorlik hosil qiladi. [18] Chunki biz ko‘zga ko‘rinadigan narsalarga
emas, ko‘zga ko‘rinmaydigan narsalarga qaraymiz. Ko‘rinadiganlari muvaqqat, ko‘rinmaydiganlari esa
abadiydir.

5-БОБ

Samoviy vatanimiz

[1] Biz bilamizki, bu foniy uyimiz[f], bu kulbamiz xarob bo‘lgandan keyin, Xudo bizga mangu bir uy, qo‘l
bilan qurilmagan osmondagi makonni beradi. [2] Biz samoviy maskanimizga burkanishni sog‘inib, oh chekib
yuribmiz. [3] O‘shanda shunday burkangan bo‘lib, boshqa yalang‘och ko‘rinmaymiz. [4] Dunyoviy kulbada
bo‘lgunimizcha, istibdod ostida oh-nola chekyapmiz. Bu kulbadan chiqishni istamasak-da, *samoviy vujudga*
burkanishni orzu qilamiz, chunki o‘shanda bu foniylik boqiy hayotga tamoman g‘arq bo‘lajak. [5] Aynan
shuning uchun Xudo bizni yaratgan va buning garovi qilib bizga Muqaddas Ruhni ato qilgan.
[6] Shuning uchun biz doimo xotirjammiz. Bilamizki, bu badanda joylashgunimizcha, Rabbimizdan uzoqda
qolgan g‘ariblarmiz. [7] Biz ko‘rish bilan emas, e’tiqod bilan yashaymiz. [8] Ha, xotirjammiz va iloji bo‘lsa,

---

[a] **3:14** QADIMGI AHD: lug‘atga qarang.
[b] **4:4** BU DUNYONING TANGRISI: Xudoni tanimaydigan odamlar ustidan xudolik qilayotgan shayton; yana qarang: Efesliklar 2:2, Yuhanno 12:31.
[c] **4:6** qarang: Ibtido 1:3-5.
[d] **4:7** SOPOL IDISHLAR: o‘tkinchiligimiz, bandaligimiz ramzi.
[e] **4:13** qarang: Zabur 115:1-2.
[f] **5:1** FONIY UYIMIZ: badanimiz ramzi; aynan qarang: 2-Butrus 1:13-14.

badanimiz g‘urbatsarosidan chiqib, Rabbimiz huzuridagi vatanga ko‘chishni xohlaymiz. [9] Lekin xoh vatanda,
xoh g‘urbatda joylashsak, Rabbimizga maqbul bo‘lish uchun jonbozlik qilamiz. [10] Chunki hammamiz badanda
yashagan paytda qilgan yaxshi yoki yomon ishlarimizga yarasha qismatimizni olish uchun, Masihning hukm
kursisi oldida hozir bo‘lajakmiz.

Xudo bilan yarashish

[11] Biz Xudodan qo‘rqishning nimaligini anglaganimizdan keyin, boshqa odamlarni ham Unga
ishontirmoqqa tirishamiz. Xudoga esa biz ayonmiz va umid qilamanki, sizlarning vijdoningizga ham
ayonmiz. [12] O‘zimizni sizlarga qayta taqdim etmayapmiz. Lekin qalbidan ko‘ra tashqi qiyofasi bilan
maqtanayotganlarga tegishli javob beringlar deb, biz bilan maqtanish imkoniyatini sizlarga beryapmiz. [13] Biz
aqldan ozdikmi? Unda bu Xudo uchun. Aqlli gapiryapmizmi? Unda bu sizlar uchun. [14] Axir, Masihning sevgisi
bizni qamrab olyapti-ku! Agar hamma odamlar uchun Bittasi o‘lgan bo‘lsa, bu hammasi o‘lgani demak, degan
xulosaga keldik. [15] Masih ana shu maqsadda hamma uchun o‘ldi, toki yashayotganlar endi o‘zlari uchun emas,
balki o‘zlari uchun o‘lgan va tirilgan Masih uchun yashasinlar.
[16] Shuning uchun biz endi hech kimni insoniy fikr bilan qadrlamaymiz. Agar Masihni ilgari insoniy fikr
bo‘yicha bilgan bo‘lsak, bundan keyin yana bunday bilmaymiz. [17] Binobarin, kim Masihga tegishli bo‘lsa, u
yangi ijoddir. Qadimgi holat o‘tib ketdi, endi [hammasi] yangi bo‘ldi.
[18] Bularning hammasiga Xudo sabab bo‘ldi. U Masih orqali bizni O‘zi bilan yarashtirdi hamda odamlarni
Xudo bilan yarashtirish[a] xizmatini bizga berdi. [19] Ha, Xudo Masih vujudida bo‘lib dunyoni O‘zi bilan
yarashtirdi, odamlarning gunohlarini hisobga olmadi. Bu yarashish to‘g‘risidagi xabarni yetkazishni esa bizga
topshirdi. [20] Shunday qilib, biz Masih uchun elchilik qilyapmiz, Xudo biz orqali insonlarga murojaat etyapti.
Biz Masih nomidan yolvoryapmiz: Xudo bilan yarashinglar! [21] Xudo bizni O‘ziga ma’qul, solih deb bilish
uchun, gunohni hech bilmagan Masihni biz uchun gunohga aylantirdi.

6-БОБ

Injil yo‘lida fidoyilik

[1] Xudoning hamkorlari sifatida, Uning inoyatini befoyda qabul qilmaslikni sizlardan iltimos qilamiz.
[2] Chunki Xudo *Tavrotda* shunday deyapti:

> “Maqbul vaqtda seni eshitdim,
> Najot kunida senga yordam berdim”.

Mana endi maqbul vaqt keldi! Mana endi najot kuni keldi!
[3] Xizmatimiz qoralanmasin deb, hech kimga hech qanday xalaqit bermaymiz. [4] Xudoning xizmatkorlari
sifatida o‘zimizni hamma sohada ibrat qilib ko‘rsatamiz: cheksiz sabr-toqatda, g‘am-qayg‘ularda,
tanqisliklarda, tangliklarda, [5] zarbalar ostida, zindonlarda, to‘polonlarda, zahmatlarda, uyqusizlikda, ro‘za
tutishda, [6] poklikda, donolikda, to‘zimlilikda, mehribonlikda, Muqaddas Ruh kuchida, samimiy muhabbatda.
[7] Haqiqat kalomini aytib, Xudoning qudratiga suyanib, o‘ng va so‘l qo‘lda solihlik qurollarini[b] tutib
yuribmiz. [8] Sharaf va isnodga, haqorat va maqtovga duch kelyapmiz. Bizni aldamchi hisoblaydilar, ammo
haqiqatgo‘ymiz. [9] Noma’lummiz, ammo bizni hamma biladi. Bizni o‘lgan deb hisoblaydilar, ammo mana,
tirikmiz. Bizni jazoga tortyaptilar, ammo o‘lmayapmiz. [10] Bizni xafa qilyaptilar, ammo doimo xursandmiz.
O‘zimiz kambag‘almizu, ko‘p kishilarni boyitamiz. Hech narsamiz yo‘g‘u, ammo hamma narsaga egamiz.
[11] Ey korinfliklar, sizlar uchun tilimiz yechildi, yuragimiz keng ochildi. [12] Bizning ko‘nglimiz sizlar uchun
tor emas, lekin o‘zlaringizning ko‘nglingiz juda tor ekan! [13] Buning baravariga – bolalarimga gapirayotgandek
gapiryapman – sizlar ham ko‘nglingizni kengroq qilinglar-chi!

Masih ummatining imtiyozlari

[14] Imonsizlar bilan noravo sheriklik qilmanglar[c]. Solihlik bilan qonunsizlik orasida qanday aloqa bor? Yoki
nur bilan qorong‘ilik orasida qanday umumiylik bo‘lishi mumkin? [15] Masih bilan alayhilla’na[d] orasida qanday
kelishuv bo‘la oladi? Yoki imonli bilan imonsiz orasida qanday sheriklik bo‘lishi mumkin? [16] Xudo ma’badi
bilan butlar orasida qanday muvofiqlik bor? Sizlar esa barhayot Xudoning ma’badisizlar. Xudo *Tavrotda*

---

[a] **5:18** XUDO BILAN YARASHISH: yana qarang: Rimliklar 5:1-11, Kolosaliklar 1:20-22.
[b] **6:7** SOLIHLIK QUROLLARI: imonlining hayoti jangga o‘xshaydi, bunga kerak bo‘ladigan qurol-aslaha esa poklik va ruhiy kuchdan iborat; yana qarang: 10-bob, Rimliklar 13:12, Efesliklar 6:10-20.
[c] **6:14** NORAVO SHERIKLIK QILMANGLAR: aslida “yot bo‘yinturuqqa o‘zingizni qo‘shmanglar”.
[d] **6:15** ALAYHILLA’NA: aslida “beliar”, ya’ni mal’un shaytonning nomi.

aytganidek:

“Men ular ichra maskan qilib,
O‘rtalarida yurgayman.
Ularning Xudosi bo‘lurman,
Ular esa Mening xalqim bo‘lur”.

17 Binobarin, Xudovand yana shunday degan:

“Ularning orasidan chiqinglar,
Ulardan ayrilib ketinglar,
Nopokka esa qo‘l tegizmanglar;
Shunda Men sizlarni qabul qilurman.
18 Men sizlarga Ota bo‘lurman,
Sizlar esa Menga o‘g‘ilu qiz bo‘lursiz,
– deydi Xudovand, Sarvari koinot”.

7-БОБ

Quvonchga aylangan xafalik

1 Ey sevikli birodarlarim, Xudo bizga bunday ulug‘ va’dalarni bergan ekan, badan va ruhimizni bulg‘ovchi
har qanday murdorlikdan o‘zimizni tozalab, Xudodan qo‘rqib yashab, butunlay muqaddas bo‘laylik.
2 Qalbingizdan bizlarga joy beringlar. Biz hech kimga ozor bermadik, hech kimga ziyon keltirmadik, hech
kimdan manfaat ko‘zlamadik. 3 Sizlarga ta’na qilib aytmayapman. Chunki oldin ham aytganimdek, o‘lishmi,
qolishmi, sizlar bizning dilimizdasizlar. 4 Sizlarga ishonchim komil, iftixorim katta. Qayg‘u-alamlarimiz
qancha bo‘lmasin, mening dilim tasalliga to‘lib-toshadi, behad sevinaman.
5 Hatto Makedoniyaga kelganimizdan keyin ham tanamizga hech qanday rohat topolmadik, aksincha, har
tomonlama siqilgan edik: tashqaridan hujumlar, ko‘ngilda qo‘rquvlar bor edi. 6 Lekin tushkunlarga tasalli
beruvchi Xudo Titusni yonimizga yuborib, bizni ovuntirdi. 7 Biz Titusning kelgani bilangina emas, balki u
sizlardan topgan tasalli haqida eshitish bilan ham yupanib qoldik. Titus men uchun bo‘lgan qattiq
sog‘inchingiz, tortgan ohlaringiz, ko‘rsatgan zo‘r g‘ayratingiz haqida bizga xabar bergandan keyin, yanada
ko‘proq sevindim.
8 Shu sababdan, maktubim bilan sizlarni xafa qilgan bo‘lsam ham, afsuslanmayman. Garchi oldin u
maktubdan qisqa bir muddat sizlar xafa bo‘lib, men pushaymon qilgan bo‘lsam-da, 9 endi sevinyapman. Xafa
bo‘lganingizdan emas, balki xafagarchilik sizlarni tavbaga keltirgani uchun sevinyapman. Ha, siz azbaroyi
Xudodan xafa bo‘ldingizlar, shuning uchun bizdan hech qanday zarar ko‘rmadingizlar. 10 Azbaroyi Xudo
keladigan xafagarchilik o‘kintirmaydi, aksincha, odamlarni tavbaga keltirib, najot topishiga imkon yaratadi.
Dunyoda bo‘ladigan xafagarchilik esa faqat o‘limni keltirib chiqaradi. 11 Qaranglar, aynan shu sababli, ya’ni
sizga Xudo taqdir etgan xafagarchilik sababli o‘zingizni oqlash uchun sizlarda qanday g‘ayrat paydo bo‘ldi,
qanday g‘azab, qanday qo‘rquv, qanday sog‘inch, qanday jonbozlik, qanday adolatparvarlik hosil bo‘ldi! Ana
shularning hammasi bilan o‘zingizni halolladingizlar. 12 Har holda, mening sizlarga maktub yozishimdan
maqsad ayblovchi yoki ayblanuvchini belgilash emas, balki Xudoning huzurida sizlar biz uchun qanday
ixlosmand ekaningizni eslatish edi.
13 Shu yo‘sin biz tasalli topdik. Bu topgan tasallimizdan tashqari, Titusning xursandligi bizni yana ko‘proq
quvontirdi. Chunki hammangiz uning ruhini juda ko‘taribsizlar. 14 Men uning oldida sizlarni maqtagan edim
va uyatga qolmadim. Sizlarga har narsa to‘g‘risida haqiqatni gapirar edik, Titusni maqtaganimiz ham haqiqat
bo‘lib chiqdi. 15 U hammangizning itoatkorligingizni, o‘zini qanday hurmat va ehtirom bilan qabul
qilganingizni xotirlar ekan, uning sizlarga bo‘lgan muhabbati yanada o‘t olmoqda. 16 Sizlarga ishonchim
komil, ana shundan xursandman.

8-БОБ

Quddusdagi Masih jamoati uchun iona

1 Endi birodarlar, Makedoniya o‘lkasidagi Masih jamoatlariga Xudo ko‘rsatgan inoyat haqida sizlarga
bildirib qo‘ymoqchimiz. 2 Ular og‘ir kulfatlarga yo‘liqib, sinovdan o‘tgan bo‘lsalar-da, jo‘shqin bir sevinch
namoyon qildilar, o‘ta kambag‘alligiga qaramay, samimiy bir saxiylik ko‘rsatdilar. 3 Ular qo‘llaridan
kelgancha, hatto imkonlaridan ham ortiq xayr-ehson berganlariga men shohidman. 4 Ular Xudo azizlari uchun
qilinadigan yordamda ishtirok etishni bizdan ko‘p o‘tinib so‘radilar. 5 Ular hatto umid qilganimizdan ham

ziyodroq qildilar: o‘zlarini oldin Rabbimizga, keyin, Xudoning irodasi bilan, bizga bag‘ishladilar.
[6] Titus bu xayrli ishni oldinroq boshlagani uchun, buni sizning orangizda bitirishi uchun uni
rag‘batlantirdik. [7] Sizlar hamma narsada mo‘lsiz – imonda, kalomda, bilimda, g‘ayratu tirishqoqlikda, bizga
qo‘ygan mehringizda... Shunday ekan, bu xayrli ishda ham mo‘l bo‘linglar. [8] Buni buyruq tariqasida emas,
balki boshqalarning g‘ayrati bilan muqoyasa qilib, sevgingizning haqiqiyligini sinab ko‘rib gapiryapman.
[9] Chunki sizlar Rabbimiz Iso Masihning inoyatini bilasizlar: U boy bo‘la turib, kambag‘alligim tufayli boy
bo‘linglar, deb sizlar uchun kambag‘allashdi.
[10] Bu haqda men sizlarga foydali bo‘ladigan shunday maslahat beraman: sizlar o‘tgan yili bu ishni
boshlabgina qolmay, rosa ko‘ngil qo‘ygan edingizlar. [11] Endi bu ishni oxiriga yetkazinglar, chin ko‘ngildan,
qo‘lingizdan kelganicha bitirishga harakat qilinglar. [12] Agar g‘ayrat bo‘lsa, kimda nima yo‘qligiga qarab emas,
balki nima borligiga qarab qabul qilinadi. [13] Boshqalarga yengillik bo‘lib, sizlarga esa og‘irlik tushmasligi
kerak, ammo baribir tenglik bo‘lsin. [14] Hozirda sizlardagi baraka ulardagi yetishmovchiliklarni to‘ldirsin,
boshqa vaqtda ulardagi baraka sizlardagi kamchiliklarni to‘ldirsin, shu yo‘sin tenglik bo‘lsin. [15] *Tavrotda*
yozilganidek:

> “Ko‘p to‘plaganda ortig‘i bo‘lmadi,
> Oz to‘plaganda kami bo‘lmadi”.

Titus Korinfga yuborilyapti

[16] Sizlar uchun Titusning diliga bunday g‘ayratni jo qilgan Xudoga shukr! [17] Men unga iltimos qilgan
bo‘lsam-da, u o‘z xohishi va zo‘r g‘ayrat bilan sizning oldingizga bormoqchi bo‘ldi. [18] U bilan birga butun
Masih jamoatlarida Injil voizi deb maqtalgan bir birodarni ham yuboryapmiz. [19] Jamoatlar ayniqsa bu xayrli
ishda yordam qilsin, deb uni yo‘ldoshimiz qilib sayladilar. Biz bu ishni Rabbimizni ulug‘lash uchun olib
boryapmiz, shu bilan o‘z ishtiyoqmandligimizni ko‘rsatishga ham fursat topyapmiz. [20] Bizga ishonib
topshirilgan bu mo‘l ehsonni yig‘ishda birov bizga ta’na qilmasin deb ehtiyot bo‘lmoqdamiz. [21] Biz Rabbimiz
oldidagina emas, balki insonlar oldida ham halol bo‘lishga harakat qilamiz.
[22] Demak, bir necha marta turli sharoitda sinalgan va g‘ayrati borligini ko‘rsatgan, endi esa sizlarga
ishonchi komil bo‘lib yanada g‘ayratli bo‘lgan bu birodarimizni boyagi ikki kishi bilan birga yuboryapmiz.
[23] Titusga kelganda, u mening o‘rtog‘im va orangizda yumush bajaradigan hamkorimdir. Boshqa
birodarlarimiz bo‘lsa, Masih jamoatlarining elchilari va Masihning shon-shuhratidirlar. [24] Shunday qilib,
jamoatlar oldida bularga muhabbatingizni namoyon qilib, sizlar tufayli topgan iftixorimizning to‘g‘riligini
isbot etinglar.

9-БОБ

Saxiy bo‘lishga undash

[1] Azizlar uchun qilinadigan yordam haqida sizlarga yozish men uchun ortiqchadir. [2] Chunki bilamanki,
yordam berishga tayyorsizlar, shuning uchun ham: “Axaya aholisi o‘tgan yildan beri tayyor”, – deb
Makedoniya bo‘ylab sizlar bilan maqtanib yuribman. Sizlarning g‘ayratingiz tufayli ko‘plar harakatga keldi.
[3] Endi siz haqingizda maqtanish behuda bo‘lib chiqmasin va xuddi aytganimday, tayyor bo‘linglar deb,
birodarlarni yuboryapman. [4] Yana makedoniyaliklar men bilan birga borib, sizlarni tayyor bo‘lmagan holda
topsalar, biz uyatga qolmaylik – aynan sizlar deb aytmayapman; chunki biz shunday ishonib sizlar bilan
maqtanib qo‘yganmiz, axir. [5] Shuning uchun va’da etilgan ionalarni oldindan tayyorlasinlar deb, men
birodarlarni o‘zimdan avval oldingizga yuborib, iltimos qilishni lozim ko‘rdim. Ionangiz nohaq soliqday
emas, rozilik bilan tayyor bo‘lsin.
[6] Shuni unutmangki, qizg‘anib ekkan qizg‘anib o‘rib oladi; mo‘l ekkan esa mo‘l o‘rib oladi. [7] Har kim
norozi bo‘lib yoki majburiyat bilan emas, balki ko‘nglida niyat etganini bersin. Chunki Xudo rozi bo‘lib
beruvchini sevadi. [8] Sizlar hamma vaqt hamma narsaga to‘la qanoat hosil qilib, turli xayrli ishlarga boy
bo‘lishingiz uchun, Xudo sizlarni har xil noz-ne’matlardan boy qilishga qodir. [9] *Zaburda* yozilganidek:

> “Solih qo‘lini ochib kambag‘alga sadaqa berar,
> Uning solihligi esa abadiy turar”[a].

[10] Dehqonga urug‘ va yeyuvchiga non beradigan Xudo sizlarning ekkaningizni ham mo‘l qiladi, bu
himmatingizni unumli qiladi. [11] Sizlar yanada saxiy bo‘lib, har jihatdan boyib ketasizlar, natijada biz tufayli
Xudoga hamdu sanolar oshib ketadi.

---

[a] **9:9** qarang: Zabur 111:9.

[12] Bu muqaddas burchning ijro bo‘lishi bilan na faqat Xudo azizlarining kamchiliklari to‘ldiriladi, balki ko‘pchilik odamlar ham Xudoga ko‘pdan-ko‘p tashakkur aytishga sabab topadi. [13] Chunki bu xayr-ehsoningiz sizning Xudoga bo‘ysunganingizdan, shuningdek, Masih Xushxabariga bo‘lgan ixlosingiz va samimiy saxovatingizdan dalolatdir; odamlar buni ko‘rib, Xudoni ulug‘laydilar. [14] Sizlar uchun ibodat qilar ekanlar, Xudo sizga ortig‘i bilan inoyat berganidan quvonishib, sizlarga ko‘ngil qo‘yadilar. [15] Uning ifodalashga til ojiz hadyasi uchun Xudoga shukr!

10-БОБ

Havoriy Pavlusning mudofaasi

[1] Men, Pavlus – shaxsan oramizda bo‘lganda kamtar, bizdan uzoq bo‘lganda esa jasur, deb yurishgan men, Pavlus – Masihning muloyimligi va muruvvati bilan sizlarga murojaat qilaman. [2] Sizdan o‘tinib so‘rayman, oldingizga kelganimda, meni jasurona va balandparvoz gapirishga majbur qilmanglar! Shuni aytay, bizni o‘z bashariy qobiliyati bilangina ish qilyapti, deb o‘ylayotganlarning ba’zilariga men shunday jasoratni bemalol ko‘rsatarman. [3] Bizning hayotimiz bandalik bo‘lsa ham, bashariy kuch bilan jang qilmayapmiz. [4] Bizning jangdagi qurol-aslahamiz bashariy emas, balki qal’alarni yakson qilish qudratiga ega bo‘lgan ruhiy aslahalardir. Biz Xudoning qudrati bilan safsatalarni barham beramiz, [5] Xudo bilimiga qarshi bosh ko‘targan har qanday baland iddaoni quritib yuboramiz. Har qanday fikrni Masihga bo‘ysundirib asir qilamiz. [6] O‘zlaringiz ham to‘la bo‘ysungandan keyin, biz har xil itoatsizlikni jazolashga tayyormiz.

[7] Tashqi qiyofaga qarayapsizlarmi? Agar kim Masihning ummatiman, deb o‘ziga ishonsa, o‘z-o‘zidan qiyos qilsin: u qanday Masihning ummati bo‘lsa, bizlar ham xuddi shunday Masihning ummatimiz. [8] Rabbimiz bizga bergan iqtidor haqida andak ko‘proq maqtansam ham, xijolat bo‘lmayman. Chunki bu iqtidor sizni xarob qilish uchun emas, barpo qilish uchun berilgan. [9] Maktublarim bilan sizlarni go‘yo qo‘rqitayotgan bo‘lib ko‘rinmayin. [10] Ba’zilar: “U maktublarida talabchan va kuchli, lekin shaxsan zaif va so‘zi o‘tmas”, – deyaptilar. [11] Bunday deyuvchilar shuni bilsinki, biz uzoqda, maktublarimizda qanday bo‘lsak, shaxsan, huzuringizda ham shundaymiz.

[12] Biz o‘zlarini namoyish qilayotganlarning ba’zilari bilan o‘zimizni barobar tutishga yoki qiyos qilishga jur’at etmaymiz. Ular aqlsizlarcha o‘zlarini o‘zlari bilan o‘lchab, o‘zlariga o‘zlari me’yordirlar. [13] Lekin biz esa cheksiz-chegarasiz maqtanavermaymiz. Biz faqat Xudo taqdir etgan chegara ichida maqtanamiz. Bu chegara esa sizlargacha yetib borgan. [14] Biz go‘yo sizlarning oldingizga bormaganday, haddimizdan oshmayapmiz, chunki Masihning Xushxabarini sizning oldingizgacha yetkazganmiz. [15] Biz haddan tashqari boshqalarning mehnati bilan ham maqtanmayapmiz. Lekin imoningiz komil bo‘la borgan sari, biz o‘z chegaramizdan oshmay, orangizdagi nufuzimizni yana orttiramiz, deb umid qilamiz. [16] Shunday qilib, begona yerlardagi tayyor ishlar bilan maqtanmay, sizlardan uzoqroq joylarda ham Xushxabarni targ‘ib qilaylik. [17] Maqtanaman degan Rabbimiz bilan maqtansin. [18] O‘zi-o‘zini maqtagan emas, balki Rabbimiz maqtagan kishi maqbuldir.

11-БОБ

Soxta havoriylar

[1] Koshki mening chandon befarosatlik qilishimga biroz bo‘lsa ham sabr qilsangizlar edi! Zotan sizlar menga sabr qilyapsizlar ham. [2] Men sizlarni Xudoning rashki bilan qizg‘anyapman, chunki sizlarni bir pok bokira qizni yagona erga nikohlaganday, Masihga taqdim etdim. [3] Mabodo Momo Havoni ilon o‘zining hiylagarligi bilan aldaganiga o‘xshab, sizlarning o‘y-fikringiz ham buzilib, Masihga xos soddalikdan ayrilib qolmasangizlar, degan xavotirdaman. [4] Agar birov kelib, biz va’z qilgandan boshqa bir Isoni va’z qilsa, yo sizlar olgan Ruhdan boshqa bir ruhni olsangiz, yoki qabul qilgan Injildan boshqa bir xushxabarni eshitsangiz, naqadar xush qarshilaysizlar! [5] Men ham o‘sha “oliy havoriylar”dan hech bir narsada qolishmayman, deb o‘ylayman. [6] Men nutqda mohir bo‘lmasam ham, lekin bilimda mohirman. Bu xususda biz sizlarga tamoman ochiq va ayonmiz.

[7] Men sizlarni yuksaltirish uchun o‘zimni pasaytirib, Isoning Xushxabarini sizlarga tekinga targ‘ib qilib, gunoh qildimmikan? [8] Men sizlarga xizmat qilish uchun boshqa Masih jamoatlariga chiqim keltirib, ulardan mablag‘ olar edim. Orangizda bo‘lib, muhtojlikda qolganimda ham birovga ortiqcha yuk bo‘lmadim. [9] Chunki Makedoniyadan kelgan birodarlar yetishmovchiliklarimni to‘ldirdilar. Men hech narsada sizlarga og‘ir bo‘lmaslikka tirishgan edim va tirishaman ham. [10] O‘zimdagi Masihning haqiqati haqi deyapman: Axaya mamlakati bo‘ylab hech kim bu iftixorimdan meni mahrum qila olmaydi. [11] Nima uchun shunday munosabatda bo‘lyapman? Sizlarni sevmaganimdanmikan? Xudo biladi, unday emas!

[12] Biz bilan teng bo‘lishga intilayotgan maqtanchoqlarga yo‘l bermaslik uchun, men nima qilayotgan

bo‘lsam, kelajakda ham qilaveraman. [13] Bu kabi odamlar – soxta havoriylar, hiylakor xizmatkorlardir, ular
faqat Masihning havoriylari qiyofasini oladilar. [14] Buning hayron qoladigan joyi yo‘q. Chunki shaytonning o‘zi
ham nurli farishtaning qiyofasini oladi. [15] Demak, shaytonning xizmatkorlari ahli saloh qiyofasini olsalar,
ajablanmaslik kerak. Ularning oqibati qilmishlariga yarasha bo‘ladi.

Havoriy Pavlus chekkan qayg‘ular

[16] Yana aytaman: biror kishi meni aqlsiz deb o‘ylamasin. Bordiyu shunday o‘ylasangiz, hech bo‘lmasa
aqlsiz kabi qabul qilinglar-chi, toki men ham biroz maqtanay! [17] Bunday balandparvozlik qilib, men Rabbim
gapirganday emas, balki aqlini yo‘qotgan maqtanchoqday gapirgan bo‘laman. [18] Modomiki, ko‘pchilik
o‘zlarining insoniy fazilatlari bilan maqtanayotgan ekan, mayli men ham maqtanaveraman. [19] Siz, aqllilar,
aqlsizlarga jon deb toqat qilasizlar. [20] Chindan ham agar biror kishi sizni asoratga solsa, haqingizni yesa,
talon-taroj qilsa, o‘zini katta tutsa, yuzingizga tarsaki ursa, sizlar bunga chidaysizlar. [21] Xijolatlik bilan
aytamanki, bizda bunday ishlarga darmon yetmas edi!

Shunday qilib, agar biror kishi biron narsada maqtanmoqqa jur’at qilsa – o‘zimni aqlsizlikka solib
aytyapman – unda men ham jur’at etaman. [22] Ular yahudiymi? – Men ham yahudiyman. Ular isroillikmi? –
Men ham isroillikman. Ular Ibrohim naslimi? – Men ham Ibrohim nasliman. [23] Ular Masihning
xizmatkorlarimi? – Men befarosatlik qilib aytyapmanki, ularning hammasidan ustunman! Zahmat desangiz,
men ulardan ko‘proq zahmat chekdim. Zindon desangiz, ulardan ko‘proq zindonda yotdim. Zarba desangiz,
men haddan tashqari zarba yedim, hatto ko‘p marta o‘limga yaqin yurdim. [24] Yahudiylar tomonidan besh
daf’a bir kam qirqtadan qamchi yedim. [25] Uch daf’a tayoq bilan savaladilar, bir daf’a toshbo‘ron qildilar, uch
daf’a kemada halokatga uchradim, bir kechayu kunduzni dengiz bag‘rida o‘tkazdim. [26] Ko‘p daf’a
sayohatlarga chiqdim. Daryolarda tahlikada qoldim, qaroqchilardan tahlikada qoldim, o‘z qondoshlarimdan
ham, majusiylardan ham tahlikaga tushdim. Shaharda tahlika, yovonda tahlika, dengizda tahlika, soxta
birodarlar orasida tahlika! [27] Mehnat va mashaqqat ostida, ko‘p daf’a uyqusizlikda, ochlik va tashnalikda,
ko‘p ro‘za tutish azoblarida qoldim, sovuq havoda yalang‘och yurdim.

[28] Tashqi hodisalardan boshqa har kuni odamlar yig‘ilib keladi, butun Masih jamoatlari haqida ham
g‘amxo‘rlik qilaman. [29] Qaysi darmonsizlar bilan men toliqmagan edim?! Qaysi vasvasaga tushganlar uchun
yuragim yonmagan edi?! [30] Agar maqtanish menga lozim bo‘lsa, o‘z zaifligim bilan maqtanaman.

[31] Abadiy hamd-sanoga munosib Xudo, Rabbimiz Iso Masihning Otasi biladiki, men yolg‘on
gapirmayapman. [32] Mana, Damashqda podsho Aretasning viloyat hokimi meni tutish uchun Damashq shahrini
nazorat ostiga olgan edi. Ammo meni savat ichida devordagi derazadan tushirishdi va men uning qo‘lidan
qochib qutuldim[a].

12-БОБ

Havoriy Pavlusga kelgan vahiylar

[1] Mening maqtanishim hech ham munosib emas, chunki endi Rabbim menga ayon qilgan narsalarga va
vahiylarga kelaman. [2] Masihga qarashli bir odamni bilaman. O‘n to‘rt yil oldin – badanda edimi, badandan
tashqarida edimi, bilmayman, Xudo biladi – u odam yerdan uchinchi osmonga qadar ko‘tarildi. [3] Ha, bu odam
haqida shuni bilamanki, – yana badanda edimi, badandan tashqarida edimi, bilmayman, Xudo biladi, – [4] u
jannatga ko‘tarildi va insonga gapirish mumkin bo‘lmagan, tilga olib bo‘lmas so‘zlar eshitdi. [5] Bunday bir
odam bilan maqtansam bo‘ladi. Lekin o‘zim haqimda bo‘lsa, zaifliklarimdan boshqa hech narsa bilan
maqtana olmayman. [6] Shu bilan birga, agar maqtanaman desam, aqlsiz bo‘lmayman, chunki haqiqatni
gapirgan bo‘laman. Faqat biror kishi men haqimda o‘zimda ko‘rgan yoki eshitgandan ortiq fikr qilmasin, deb
o‘zimni tutib turibman.

[7] Menga kelgan odatdan tashqari ajoyib vahiylardan o‘zimni hammadan yuqori tutmasligim va kibrlanib
ketmasligim uchun, mening badanimga bir nish, meni niqtalayveradigan bir shayton elchisi berildi. [8] Buni
mendan yiroqlashtirgin deb, uch marta Rabbimga yolvordim. [9] Ammo Rabbim menga shunday dedi: “Senga
bergan inoyatim yetar, Mening qudratim zaiflikda tugal bo‘ladi”. Shuning uchun, Masihning qudrati menda
amal qilsin deb, yanada ko‘proq, bajonidil o‘z zaifliklarim bilan maqtanaman. [10] Shu sababdan Masih uchun
zaifliklarga, ozorlarga, muhtojliklarga, ta’qib va siquvlarga yo‘liqqanimda, qanoat qilaman. Chunki zaif
bo‘lsam, qudratim oshar ekan.

[11] Men maqtanib, aqlsiz kabi bo‘ldim. Ammo meni bunga sizlar majbur etdingizlar-ku. Sizlar meni madh
qilishingiz lozim edi. Bordiyu men hech kim bo‘lmasam ham, o‘sha “oliy havoriylar”dan hech kam emasman.
[12] Havoriyligim mohiyati sizlarning orangizda tugal sabr-qanoat bilan, ajoyib va qudratli mo‘jizalar orqali

[a] **11:32** aynan qarang: Havoriylar 9:24-25.

isbotlab berilgan-ku! [13] O‘zga Masih jamoatlaridan sizlarning nimangiz qolishar ekan? Bordiyu, birgina sizlarga mening og‘irligim tushmaganini aytsam... Aybim uchun meni kechiringlar!

Korinfliklar uchun qayg‘urish

[14] Mana, uchinchi daf’a oldingizga borishga tayyormanu, sizlarga hech og‘irligimni tushirmayman. Chunki qo‘lingizdagini emas, o‘zlaringizni istayman. Zotan farzandlar ota-onalariga emas, balki ota-onalar farzandlariga mol-mulk jamg‘arishlari lozim. [15] Men esa ko‘p mamnuniyat bilan mol-mulkimnigina emas, o‘z jonimni ham sizlarning jonlaringiz uchun sarflayman. Men sizlarni haddan tashqari sevar ekanman, sizlar meni kamroq sevishingiz to‘g‘ri bo‘ladimi?

[16] Masalan, aytaylik, men sizlarga og‘irligimni tushirmagan bo‘lsam-da, lekin aldab, hiyla bilan sizlardan olgan ekanman. [17] Biroq yuborgan odamlarim orqali sizlardan biror manfaat ko‘rdimmikan? [18] Titusdan iltimos qilib, boshqa birodarimizni ham u bilan birga oldingizga yuborganimda, Titus sizlardan foydalandimikan? Bizlar bir ruhda faoliyat ko‘rsatmagan edikmi? Bir yo‘lda yurmagan edikmi?

[19] Biz sizlarning oldingizda o‘zimizni oqlamoqchimiz, deb fikr qilmayapsizlarmi hali? Yo‘q, Masih haqi Xudoning huzurida gapiryapmiz: ey sevganlarim, biz faqat ibrat olishingiz uchun bunday harakat qilyapmiz. [20] Men yoningizga kelganimda, mabodo sizlarni yoqimsiz ahvolda toparman, sizlar esa meni yoqimsiz ahvolda toparsiz, deb qo‘rqaman. Mabodo kelsamu, janjal, hasadgo‘ylik, g‘azabnoklik, talash-tortish, bo‘hton, g‘iybat, manmanlik, tartibsizlik ko‘ramanmi, degan xavotirdaman. [21] Bordiyu yana yoningizga kelganimda, ko‘pchilik burun qilgan gunohlari – harom-harishlik, fahshbozlik, shaloqlikdan tavba qilmagan bo‘lsa, Xudoyim meni oldingizda yerga urmasin, sizlar uchun motam tutib yig‘lamayin.

13-БОБ

So‘nggi pand-nasihat va salom

[1] Men endi uchinchi daf’a yoningizga boryapman. Axir, *Tavrotda yozilganidek*: “Ikki yoki uch shohidning har qanday guvohligi qat’iy bo‘ladi”. [2] Shunday qilib, men ikkinchi daf’a yoningizda bo‘lganimda ogohlantirgan edim. Endi esa g‘oyib bo‘lsam ham, yozib ogohlantiryapmanki, agar yana oldingizga borsam, oldin gunoh qilgan odamlarning ham, boshqalarning ham hech birini ayamayman. [3] Sizlar-ku men orqali Masih so‘zlashiga dalil izlayapsizlar. Mana, Masih sizlarga nisbatan zaif emas, U orangizda O‘z qudratini namoyish qilmoqda. [4] Garchi U zaiflik holatida xochga mixlangan bo‘lsa-da, Xudoning qudrati tufayli tirikdir. Shunga o‘xshab, biz Masihning zaifligiga sherik bo‘lsak ham, sizlarni deb Xudoning qudrati tufayli Masihning hayotiga ham sherikmiz.

[5] O‘z-o‘zingizni tekshiringlar: imonda turibsizlarmi? O‘zingizni sinab ko‘ringlar: Iso Masih ichingizda ekanini bilmayapsizlarmi? Bilmasangizlar, maqbul emassizlar. [6] Biz esa nomaqbul emasligimizni bilasizlar, deb umid qilaman. [7] Sizlar yomon ish qilmasligingizni Xudodan tilaymiz. Maqsadimiz o‘zimizni maqbul deb ko‘rsatish emas. Aksincha, bordiyu biz maqbul ko‘rinmasak ham, sizlar yaxshi ish qilsangiz bo‘ldi. [8] Zotan haqiqatga qarshi turishga kuchimiz yetmaydi, haqiqat yo‘lida esa kuch-quvvatlimiz. [9] Bizlar zaif, sizlar esa quvvatli bo‘lganingizdan sevinamiz. Zotan, tilagimiz sizlarning komil bo‘lishingizdir. [10] Shuning uchun men hali kelmay turib, shularni yozyapman, toki kelganimda Rabbim menga bergan iqtidor bilan qattiq choralarni ishga solmayin. Men bu iqtidorni xarob qilish uchun emas, barpo qilish uchun olganman.

[11] Shunday qilib, birodarlarim, yaxshi qolinglar. Komil bo‘lishga g‘ayrat qilinglar. Pand-nasihatga quloq solinglar. O‘zaro hamfikr bo‘linglar, tinchlikni saqlanglar. Shunda sevgi va tinchlik bergan Xudo sizlar bilan bo‘ladi. [12] Muqaddas o‘pich bilan salomlashinglar. Xudoning barcha azizlari sizlarga salom yo‘llayaptilar.

[13] Rabbimiz Iso Masihning inoyati, Otamiz Xudoning sevgisi va Muqaddas Ruhning hamrohligi hammangizga yor bo‘lsin! Omin.